

# 어린이 국가예방접종사업 안내

## Bolalarni emlash bo'yicha davlat dasturi haqida ma'lumot

예방접종은 치명적인 질병으로부터 아이들을 보호할 수 있는 안전하고 효과적인 방법으로, 어린이 감염병 예방을 위해 국가에서 예방접종비용을 전액 지원하고 있습니다.

Emlash bu -o'limga olib keluvchi xavfli kasalliklardan bolalarni himoya qiluvchi, xavfsiz va samarali usul sanalib, bolalarni yuqumli kasalliklardan saqlash maqsadida davlat tomonidan emlash xarajatlari to'liqligicha qoplanib kelinmoqda.

### » 국가예방접종 지원백신 Davlat tomonidan qilinadigan emlash uchun vaksinalar

**Bolalari sog'lom Koreya**

**Emlash uchun standart taqvim(2022)**

대상 연령별 Teqishli yuqumli kasalliklar	백신종류 및 방법 Vakcina turi va usuli	최소 Soni	출생-1개월 이내 Yangi tug'ulgan - 1oy ichida	1개월 1oylik	2개월 2oylik	4개월 4oylik	6개월 6oylik	12개월 12oylik	15개월 15oylik	18개월 18oylik	19~23개월 19-23 oylik	24~36개월 24-36 oylik	만 4세 4yoshdan kichik	만 9세 9yoshdan kichik	만 11세 11yoshdan kichik	만 12세 12yoshdan kichik	
결핵 SI	BCG(피내용)(Teri ichkaridan)	1	BCG 1회 BCG 1marta														
B형간염 Cepatt B	HepB	3	HepB 1회 HepB 1-bo'shich	HepB 2회 HepB 2-bo'shich			HepB 3회 HepB 3-bo'shich										
디프테리아 Difteriya 파상풍 Qoqshol 백일해 Ko'kyotal	DTaP	5		DTaP 1회 DTaP 1-bo'shich	DTaP 2회 DTaP 2-bo'shich	DTaP 3회 DTaP 3-bo'shich			DTaP 4회 DTaP 4-bo'shich				DTaP 5회 DTaP 5-bo'shich				
폴리오 Poliomelit	IPV	4		IPV 1회 1-bo'shich	IPV 2회 2-bo'shich		IPV 3회 3-bo'shich						IPV 4회 IPV 4-bo'shich				
인형해모필루스인플루엔자 Gemcilli gripping B turi	Hib	4		Hib 1회 1-bo'shich	Hib 2회 2-bo'shich	Hib 3회 3-bo'shich	Hib 4회 4-bo'shich										
폐렴구균 Pnevmoniya	PPSV	-		PCV 1회 1-bo'shich	PCV 2회 2-bo'shich	PCV 3회 3-bo'shich	PCV 4회 4-bo'shich						고위험군에 한하여 있음 Faqat yuqori xavfga ega bolalar uchun emlash amaliq o'tiriladi.				
홍역 Ozamiq 유행성이하선염 Epidemik parotit 풍진 Qizilcha	MMR	2						MMR 1회 MMR 1-bo'shich					MMR 2회 MMR 2-bo'shich				
수두 Suvchedhak	VAR	1						VAR 1회 VAR 1-bo'shich									
A형간염 Yapon ensefaliti	HepA	2						HepA 1회 1-bo'shich	HepA 2회 2-bo'shich								
일본뇌염 Yapon ensefaliti	LJEV	5						LJEV 1회 1-bo'shich	LJEV 2회 2-bo'shich	LJEV 3회 3-bo'shich		LJEV 4회 4-bo'shich		LJEV 5회 5-bo'shich			
사람유두종바이러스 감염증 Papillomavirus yuqumli kasalliq	HPV	2						LJEV 1회 1-bo'shich	LJEV 2회 2-bo'shich							HPV 1회 1-bo'shich	
인플루엔자 Gripp	IIV	-															IIV har yili emlanadi
백일해 Bakilday	로타바이러스 감염증 Rotavirus yuqumli kasalliq	RV1 RV5	2 3		RV 1회 1-bo'shich	RV 2회 2-bo'shich	RV 3회 3-bo'shich										

### » 무료 접종 지정 의료기관

### » Bepul emlash xizmatini ko'rsatadigan tibbiy muassasalar

- 지정 의료기관은 예방접종도우미 누리집(<https://nip.kdca.go.kr>)에서 확인할 수 있습니다.
- Belgilangan tibbiy muassasalarni emlash bo'yicha yordamchi Nuri markazi (<https://nip.kdca.go.kr>) orqali aniqlash mumkin.
  - \* 지정 의료기관 방문 전 접종 가능한 백신 종류를 확인하시기 바랍니다.
  - \* Belgilangan tibbiy muassasaga tashrif buyurishdan oldin ushbu muassasada o'tkaziladigan emlash turlarini aniqlash lozim.
  - \* 지정 의료기관 정보는 한국어로 제공됩니다.
  - \* Belgilangan tibbiy muassasa to'g'risidagi ma'lumotlar koreys tilida taqdim etiladi.
- 출생신고가 1개월 이상 지연된 경우 보건소에서 예방접종을 위한 임시관리번호를 발급받으면 무료 접종 가능합니다.
- Tug'ilganlik to'g'risida xabar berish 1 oydan ortiq muddatga kechikkanda hududiy sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan emlash uchun vaqtinchalik nazorat raqami berilsa, bepul emlash xizmatidan foydalanish mumkin.
- 자녀의 예방접종 기록은 예방접종도우미 누리집 또는 이동통신 앱에서도 확인할 수 있습니다. 예방접종을 완료하지 않은 경우, 가까운 보건소 또는 지정 의료기관을 방문하여 무료접종 받으시기 바랍니다. 만약 예방접종을 완료하였으나 전산등록이 누락된 경우 접종기관에 전산등록을 요청하시기 바랍니다(한국어로만 지원).
- Farzandlarining emlanganligi to'g'risidagi qaydlarni emlash bo'yicha yordamchi tashkilot Nuri markazi yoki mobil dasturlar orqali aniqlash mumkin. Emlash to'liqligicha o'tkazilmagan holatda, yaqin atrofda joylashgan sog'liqni saqlash bo'limi yoki belgilangan tibbiy muassasaga tashrif buyurib bepul emlashdan o'tish so'raladi. Agar emlashdan to'liq o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan, elektron ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa, emlash o'tkazilgan muassasada elektron ro'yxatdan o'tkazishni talab qilishingizni so'raymiz (Xizmat faqat koreys tilida ko'rsatiladi).
- 더 궁금한 사항이 있을 때에는 인터넷 예방접종도우미 누리집 또는 이동통신 앱을 통해 확인하거나 전화로 문의주세요.
- Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Nuri markazining internet sayti va mobil ilovasi yoki qo'ng'iroq qilish orqali murojaat qilish mumkin.

누리집: <https://nip.kdca.go.kr> | 전화번호: 043-719-8397~8399 | 다누리콜센터: 1577-1366  
 Nuri markazi: <https://nip.kdca.go.kr> | TEL: 043-719-8397~8399 | Danuri yordam markazi: 1577-1366

# Emlash tartibi haqida ma'lumotnoma

(Multi madaniyatli oila vakili uchun)

1. Ona tilingizda yozilgan emlash uchun tashxis varaqasiga qarab, koreys tilida yozilgan emlash uchun tashxis varaqasini to'ldiring.

## <Emlash uchun tashxis varaqasini to'ldirayotganda e'tibor talab etiladigan holatlar>

- Farzandingizning ism-familiyasini koreys yoki ingliz tilida yozing.
- Fuqarolik ID kartasi (chet ellik ID kartasi) raqamini yozing. Fuqarolik ID kartasi (chet ellik ID kartasi) raqami mavjud bo'lmagan holatda, hududiy sog'liqni saqlash bo'limi tomonidan berilgan emlash uchun vaqtinchalik nazorat raqami yoziladi.
- Fuqarolik ID kartasida keltirilgan tug'ilgan vaqti to'g'risidagi ma'lumot haqiqiy sanadan farq qilgan holatda tegishli katakka haqiqiy ma'lumot yoziladi.
  - \* Emlash kuni haqiqiy tug'ilgan vaqtiga ko'ra belgilanishi sababli, haqiqiy tug'ilgan vaqti boshqacha bo'lgan holatda haqiqiy tug'ilgan vaqtini tasdiqlovchi hujjat (tug'ilganlik haqida guvohnoma kabi)ni taqdim etgan holda yaqin atrofdagi sog'liqni saqlash bo'limiga ma'lumotni o'zgartirish bo'yicha ariza bering.
- Bugun og'rikan joyingizda quyidagi simptomlar kuzatilsa, quyidagilarga asosanib so'rovnomani to'ldiring.

- |                    |                  |                          |               |                      |
|--------------------|------------------|--------------------------|---------------|----------------------|
| 1. Isitma          | 2. Yo'tal        | 3. Tomoq og'rishi(shish) | 4. Ich ketish | 5. Oshqozon og'rig'i |
| 6. Ko'ngil aynishi | 7. Bosh og'rig'i | 8. Holsizlik             | 9. Boshqalar  |                      |

2. Farzandingizni ismi chaqirilmaguniga qadar davolash xonasi oldida biroz kutib turing.

3. (Emlashdan oldin) Ilgari farzandingiz shunga o'xshash emlash olganligini emlash qaydnomasi orqali aniqlab ko'ring.

※ Shifokor farzandingizning oldingi emlash tarixini elektron tizim orqali aniqlashi mumkin.

※ Farzandingiz emlaganligi qayd etiladigan daftarcha yoningizda bo'lsa shifokorga taqdim eting.

4. (Emlashdan oldin) Shifokoming tashxis xulosasi va nojo'ya ta'sirlar to'g'risidagi tushuntirishlarini diqqat bilan tinglang.

※ Koreys tilini tushunish bilan bog'liq muammo yuzaga kelganda, ona tilingizda yozilgan emlash haqida ma'lumotnoma (VIS) nusxasini shifokordan talab qiling va ushbu ma'lumotnomada keltirilgan "Emlashdan so'ng e'tibor beriladigan holatlar va nojo'ya ta'sir" haqida diqqat bilan o'qib chiqing.

5. (Emlash paytida) Shifokor qulay holatda emlashni amalga oshirishi uchun farzandingiz yosh bo'lsa, tizzangizga o'tqazib qo'lingiz bilan mahkam quchoqlab turing.

6. (Emlash paytida) Emlashdan oldin yoki keyin e'tibor talab etiladigan holatlar haqida diqqat bilan tinglab, emlashdan o'ting.

7. (Emlashdan so'ng) Bolaning keyingi emlash sanasi shifokor bilan maslahatlashgan holda belgilanadi.

\* Tashxis varaqasi yozilayotganda "Mobil telefon raqamini ko'rsatish va xabar qabul qilishga roziman" qismini tanlab, shifokorga tanlangan til haqida aytilsa, navbatdagi emlash kundan boshlab koreys tilidan tashqari boshqa tanlangan tilda "Navbatdagi emlash turi va emlash sanasi" haqidagi ma'lumot xabar orqali jo'natiladi.

8. (Emlashdan so'ng) Kasalxonada 20-30 daqiqa davomida kutib, nojo'ya ta'siri yo'qligi kuzatiladi.

9. (Uyga kelgandan so'ng) Eng kamida 3soatdan ortiq vaqt davomida jiddiy e'tibor bilan simptomlar kuzatilib, isitma yoki tanada noodatiy belgilar paydo bo'lsa, darhol shifokor tomonidan kerakli muolaja amalga oshiriladi.

※ Emlash bilan bog'liq tarjimon kerak bo'lganda Danuri yordam markazi (☎ 1577-1366)ga qo'ng'iroq qilinsa yordam olish mumkin.



# Emlash bo'yicha tashxis varaqasi

Xavfsiz emlash uchun quyidagi savollarni diqqat bilan o'qib ko'rib, o'zingiz (qonuniy vakil, vasiy) tasdiqlash katagiga belgilashingizni so'raymiz.

Ism-familiya		Fuqarolik ID kartasi raqami	-	( <input type="checkbox"/> Erkak <input type="checkbox"/> Ayol)
Haqiqiy tug'ilgan vaqti		Chet ellik ID kartasi raqami	-	( <input type="checkbox"/> Erkak <input type="checkbox"/> Ayol)
Telefon raqami	(Uy)	(Mobil telefon raqami)	Vazni	kg

Emlash uchun kerak bo'ladigan shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish to'g'risidagi shaxsning roziligi	Emlanuvchi (qonuniy vakil,vasiy) Tasdiqlandi <input checked="" type="checkbox"/>
---	--

“Yuqumli kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish to'g'risidagi” qonunning 32-moddasi va ushbu qonunni amalga oshirish Qoidalar 32-moddasi 3-bandiga ko'ra fuqarolik ID kartasi raqami kabi shaxsiy ma'lumotlar yig'iladi. Qo'shimcha sifatida yig'iladiganlar quyidagilarni tashkil qiladi.

- Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ulardan foydalanish maqsadi: Majburiy emlashning keyingi bosqichi va tugallanganligi, emlashdan so'ng nojo'ya ta'sir to'g'risida xabar jo'natish
- Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va foydalanish bandlari : (Fuqarolik ID kartasi raqami), telefon raqami (uy/mobil)
- Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash va foydalanish muddati : 5yil

Emlash qilinishidan oldin emlashni nazorat qilish tizimi orqali oldindan emlanuvchining emlanish tarixi haqidagi ma'lumotni aniqlanishiga roziman. * Emlanish tarixi haqidagi ma'lumotni oldindan aniqlanishiga rozilik berilmagan holatda, keraksiz qo'shimcha emlash o'tkazilishi mumkin.	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Navbatdagi majburiy emlash va emlashning to'liq qilinganligi haqidagi ma'lumotni mobil telefon orqali xabar jo'natilishiga roziman. * Xabar qabul qilinishiga rozilik berilmagan holatda, rozilik berilmagan holatlar haqidagi xabarni qabul qilish imkoniyati mavjud emas.	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Emlash o'tkazilganidan so'ng nojo'ya ta'sirlar haqidagi xabarni mobil telefon orqali qabul qilishga roziman. * Telefon orqali xabar qabul qilishga rozi bo'lmaganda, rozilik berilmagan holatlar haqidagi xabarni qabul qilish imkoniyati mavjud emas.	

Emlanuvchi shaxs haqidagi ma'lumot	Emlanuvchi (qonuniy vakil,vasiy) Tasdiqlandi <input checked="" type="checkbox"/>
------------------------------------	--

Bugun qayeringiz og'riyapti? Og'riq belgilari haqida yozing. ( )	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Dori,ovqat (tuxum ham) yoki emlashdan so'ng teringizda toshma yoki allergik simptomlar kuzatilganmi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Ilgari emlashdan so'ng nojo'ya ta'sirlar kuzatilganmi? Bo'lgan bo'lsa emlash turini yozing. (Emlash turi : )	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Tug'ma nogiron, astma va o'pka, yurak, buyrak, jigar kasalliklari, diabet, endokrinologik kasalliklar, qon-tomir kasalliklariga qarshi ilgari davolanganmisiz? Davolangan bo'lsangiz ushbu kasallikning nomini yozing. ( )	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Spazm asoratlari yoki asab tizimi(Giyena-Barre sindromi)kasalliklariga chalinganmisiz?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Saraton, leykemiya, immunitet tizimi bilan bog'liq kasalliklarga chalinganmisiz? Chalingan bo'lsangiz kasallik nomini yozing. (Kasallik nomi : )	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Oxirgi 3oy ichida steroid, saratonga qarshi dorilar, nur terapiya orqali davolanganmisiz?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Oxirgi 1yil ichida transfuziya yoki immunoglobulin kabilardan qabul qilganmisiz?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Oxirgi 1oy ichida emlash olganmisiz? Olgan bo'lsangiz emlash turini yozing. (Emlash turi : )	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
(Ayollar uchun) Hozirda homiladomisiz yoki keyingi 1oy ichida homilador bo'lish ehtimoli mavjudmi?	<input type="checkbox"/> Ha <input type="checkbox"/> Yo'q
Emlanuvchi(qonuniy vakil, vasiy) ism-familiyasi : (Imzo) Emlanuvchi bilan bog'liqligi : * (Emlanuvchi yangi tug'ilgan chaqaloq bo'lgan holatda qonuniy vakilning fuqarolik ID kartasi raqami - ) yil oy kun	

Shifokorning tashxis xulosasi (Shifokor tomonidan to'ldiriladi)	Tasdiqlash <input checked="" type="checkbox"/>
---	--

Tana harorati : °C	Emlashdan kuzatiladigan nojo'ya ta'sirlar haqida tushuntirdim.	<input type="checkbox"/>
Nojo'ya ta'sirlarni kuzatish maqsadida emlashdan so'ng 20-30daqqa davomida emlash muassasasida kutib turish kerakligini tushuntirdim.		<input type="checkbox"/>
Shifokor so'rovnomasining natijasi :		
Yuqoridagi so'rovnoma va tashxis xulosasiga ko'ra emlash mumkin. Shifokor ism-familiyasi : (Imzo)		



## 자녀의 예방접종 기록을 확인하세요. Farzandinggizning emlash haqidagi qaydlarni tekshiring.

### ■ Emlash haqidagi qaydlarni elektron tizim orqali ro'yxatdan o'tkazilganda qanday afzalliklar mavjud?

1. Farzandinggizning emlash qaydlari haqida Nuri markazi(<https://nip.kdca.go.kr>) yoki mobil ilovasi orqali aniqlashingiz mumkin.

- Nuri markazi (<https://nip.kdca.go.kr>) ga a'zo bo'lib, farzandinggizni ro'yxatdan o'tkazishingiz mumkin.
  - Nuri markazi sahifasiga kirish → [Emlashni nazorat qilish] → [Bolalarning emlanishini nazorat qilish] → [Bola haqidagi ma'lumotlarni kiritish]
- Ro'yxatdan o'tgan bolaning emlash qaydlari haqida quyidagi usulda ma'lumot olish mumkin.
  - Nuri markazi → [Emlash nazorati] → [Bolalarni emlash nazorati] → [Chaqaloqlarni emlash qaydlari]
  - Emlash bo'yicha mobil ilova → [Bizning bolamizni emlash] → [Bola daftarchasi]
  - \* Nuri markaziga a'zo bo'lib, bola ro'yxatga olinganidan so'ng, tegishli mobil ilovadan foydalanish mumkin.

- ※ Emlash to'g'risidagi qaydlar ro'yxatga olinmagan bo'lsa, emlash muassasasida elektron ro'yxatdan o'ting.
- ※ Emlash xaritasi bolaning tegishli vakili tomonidan ehtiyotkorlik bilan saqlanishi kerak. Aks holda emlash o'tkazilganligini tasdiqlashning imkoniyati yo'q.

2. Emlanganligi haqida tasdiqlovchi hujjatni onlayn tartibda bepul olish mumkin. (koreys va ingliz tilida)

- Nuri markazi sahifasiga kirish → [Xalq murojaati elektron xizmati] → [Emlanganligi haqida tasdiqlovchi hujjat]

3. Farzandinggizning navbatdagi emlash kunini esdan chiqarmasligingiz uchun xabar qilamiz.

- Shifokorga ota-ona(vasiy)ning mobil telefon raqamini bersangiz, navbatdagi majburiy emlash kuni haqidagi xabar sizga jo'natiladi.
- Agar boshqa chet tilida muloqot qilmoqchi bo'lsangiz bu haqida shifokorga bildiring. Koreys tilida va siz so'ragan tilda xabar jo'natiladi. Navbatdagi emlash to'g'risida xabar qabul qilishi mumkin bo'lgan boshqa vakilning telefon raqamini qo'shish mumkin.

### ■ Chet davlatda emlash olgan bolaning emlanganligini tasdiqlovchi hujjatni tegishli davlatdan o'zingiz bilan olib keling

Chet davlatda uzoq vaqt davomida istiqomat qilganingizdan so'ng, davlatdan chiqishingizdan oldin ingliz tilida yozilgan emlanganligini tasdiqlovchi hujjat yoki emlash muassasasining muhri, rasmiy imzosi bilan tasdiqlangan hujjatni o'zingiz bilan olib kelib, yaqin atrofda joylashgan sog'liqni saqlash bo'limida elektron ro'yxatdan o'tkazing.

Koreya Respublikasida jamoa bo'lib yashaydigan bolalar, o'quvchilarni yuqumli kasalliklarga chalinishini oldini olish va sog'ligini saqlash maqsadida maktabgacha ta'lim muassasasi, boshlang'ich, o'rta ta'lim maktablariga qabul qilish oldidan, emlanganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi va shu asosda emlashdan to'liq o'tkazilganligi aniqlanadi.

Kasallikni nazorat qilish boshqarmasida elektron ro'yxatdan o'tilganda, emlanganligini tasdiqlovchi hujjat maktabgacha ta'lim muassasasi yoki maktabga taqdim etilmaydi.

- \* Asos: "Yuqimli kasalliklarni oldini olish va nazorat qilish to'g'risidagi" qonunning 31-moddasi, "Maktablarda sog'liqni saqlash to'g'risidagi" qonunning 10-moddasi, "Bolalar parvarishi to'g'risidagi" qonunning 31-moddasi 3-bandi



# Davlat emlash dasturi

국가예방접종 지원사업

## ➤ Bolalar uchun davlat emlash dasturi

Emlash zarur yuqumli kasalliklardan aholini himoya qilish uchun majburiy emlash xarajatlarini davlat to'liq ta'minlaydi.

- Toifaga kiruvchilar: 12 yoshgacha bo'lgan bolalar
  - ※ Toifaga kiruvchilarni bilish uchun yaqin poliklinika yoki belgilangan tibbiyot muassasasiga murojaat qiling.
- Ta'minlanadigan vaktsinalar: 17 xil

Sil(BCG, qonga), gepatit B(HepB), difteriya/qoqshol/ko'kyo'tal(DTaP), qoqshol/difteriya(Td), qoqshol/difteriya/ko'kyo'tal(Tdap), poliomielit(IPV), difteriya/qoqshol/ko'kyo'tal/poliomielit (DTaP-IPV), difteriya/qoqshol/ko'kyo'tal/poliomielit/b turdagi gemofil infeksiyasi(DTaP-IPV/Hib), b turdagi gemofil infeksiyasi(Hib), pnevmokokk(PCV), qizamiq/svinka/nemis qizamig'i(qizilcha)(MMR), suvchechak(VAR), yapon ensefalitiga qarshi vaktsina(IJEV), yapon entsefaliti uchun kuchaytirilgan jonli vaktsina(LJEV), gepatit A(HepA), odam papillomasi virusi(HPV), gripp(IIV)

※ Gepatit A, pnevmokokk kabi ba'zi vaktsinalar bilan ta'minlanadigan yosh chegaralangan.

- Emlash muassasasi: Yaqindagi belgilangan tibbiyot muassasasi yoki poliklinika
  - ※ Belgilangan tibbiyot muassasasini aniqlash: Emlash bo'yicha yordamchi Nuri markazi(<https://nip.kdca.go.kr>) yoki emlash bo'yicha yordamchi mobil ilova orqali

## ➤ Gepatit B perinatal infeksiyasining oldini olish dasturi

Gepatit B musbat natija bergan onadan tug'ilgan chaqaloqda Gepatit B perinatal infeksiyasining oldini olish uchun tug'ilganda immunoglobulin yuborish, gepatit Bga qarshi emlash va antigen/antitana testi xarajatlari to'liq ta'minlanadi.

- Toifaga kiruvchilar
 

Gepatit B yuzasidagi antigen(HBsAg) yoki "e" antigen(HBeAg) musbat natija bergan onadan tug'ilgan chaqaloqlar orasidan onaning homiladorlik paytida tug'riqdan oldingi ko'rik natijalari varaqasi\*ni topshirgan va shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etishga rozilik bildirganlar

\* Homiladorlik payti yoki tuqqandan keyin 7 kun ichida topshirgan yuzadagi antigen(HBsAg) yoki "e" antigen (HBeAg) testdan musbat natija
- Yordam mazmuni
 

1 martalik immunoglobulin(tug'ilganda), 3 marta bazaviy emlash(0, 1, 6 oy), va 1 marta gepatit B antigen/antitana testi xarajatlari to'liq ta'minlanadi.

※ 1-bosqich antigen-antitana test natijasiga qarab qayta emlash(3 martagacha) va takroriy test(2 martagacha) xarajatlari bilan qo'shimcha ta'minlanadi.

# Davlat emlash dasturi

국가예방접종 지원사업

## » Ayollar uchun sog'lom hayotga ilk qadam klinikasi dasturi

Jismoniy va ruhiy tomondan katta o'zgarishlar bosqichida bo'lgan o'smir qizlarga mutaxassis maslahati va tibbiy ko'rik, odam papillomasi virusi(HPV)ga qarshi emlash xizmatini taqdim etib, sog'lom ayol bo'lib yetishishlarida yordam beriladi.

- Toifaga kiruvchilar: 12 yoshga to'lgan o'smir qizlar

※ Toifaga kiruvchilarga batafsil talablarni bilish uchun yaqin poliklinika yoki belgilangan tibbiyot muassasasiga murojaat qiling.

- Yordam mazmuni

Odam papillomasi virusi(HPV)ga qarshi emlash va o'smir qizlar salomatligi bo'yicha maslahat, har 6 oyda 2 marta bepul taqdim etiladi.

- Ta'minlanadigan vaksinalar: Gardasil (HPV4), Servariks(Cervarix) (HPV2)

## » Grippga qarshi davlat emlash dasturi

Grippga chalinganda asoratlar paydo bo'lish xavfi yuqori bo'lgan keksalar, homilador ayollar va jamoaviy tarzda yashaydigan yosh bolalarda gripp profilaktikasi va hududga tarqalishining oldini olish uchun emlash xarajatlari to'liq taminlanadi.

- Toifaga kiruvchilar: Yosh bolalar, 65 yoshdan kattalar, homilador ayollar

※ Toifaga kiruvchilar uchun batafsil talablarni bilish uchun yaqin poliklinika yoki belgilangan tibbiyot muassasasiga murojaat qiling.

- Yordam mazmuni: Grippga qarshi emlash, 1 marta

※ 9 yoshgacha bo'lgan bolalar grippga qarshi vaksinani birinchi marta olayotgan bo'lsa, kamida 4 haftalik tanaffus bilan ikki marta emlanadi.

※ Bepul emlash davri, emlash standartlari kabi qo'shimcha ma'lumot uchun tegishli poliklinika yoki belgilangan tibbiyot muassasasiga murojaat qiling.





# Boshlang'ich va o'rta maktabga qabul qilingan o'quvchilar emlanganligini aniqlash dasturi

초 · 중학교 입학생 예방접종 확인사업

## » Boshlang'ich va o'rta maktabga qabul qilingan o'quvchilar emlanganligini aniqlash dasturi

Jamoaviy tarzda hayot kechiradigan yosh bolalar yuqumli kasalliklar tarqalishida zaif qatlam bo'lganligi bois, boshlang'ich va o'rta maktabga qabul qilingan o'quvchilarning umumiy immunitetini oshirish maqsadida emlanganligini\* aniqlab, emlanmaganlar nazorat va ro'yxatdan o'tishga chaqiriladi.

\*「Yuqumli kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish to'g'risida qonun」ning 31-moddasi.  
「Maktabdagi salomatlik to'g'risidagi qonun」ning 10-moddasi

- Loyiha kimlar uchun: Boshlang'ich va o'rta maktabga boradigan barcha bolalar
- Aniqlash dasturiga tushadigan emlash turlari
  - (Boshlang'ich maktabga borishi kutilayotganlar) 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 4 xil emlash  
DTaP 5-bosqich, IPV-4-bosqich, MMR 2-bosqich, yapon ensefaliti (faolsizlantiradigan vaktsina 4-bosqich yoki kuchaytirilgan jonli vaktsina 2-bosqich)
  - (O'rta maktabga o'tishi kutilayotganlar) 11 yoshdan 12 yoshgacha 3 xil emlash  
Tdap (yoki Td) 6-bosqich, yapon ensefaliti (faolsizlantiradigan vaktsina 5-bosqich yoki kuchaytirilgan jonli vaktsina 2-bosqich), HPV 1-bosqich (o'quvchi qizlar uchun)
- Dasturni amalga oshirish usuli
 

Ta'lim vazirligining boshlang'ich va o'rta maktabga qabul qilingan o'quvchilar haqidagi ma'lumotlari va Kasalliklarni nazorat qilish agentligining emlash ma'lumotlari bilan bog'lagan holda aniqlash dasturiga tushadigan o'quvchilarning emlanganligi aniqlanadi va emlanmaganlar emlashga chaqiriladi.

  - ※ Emlash tafsilotlarini emlash bo'yicha yordamchi Nuri markazi va mobil ilovadan tekshirish mumkin bo'lib, elektron ro'yxatdan o'tgan bo'lsa maktabga <Emlash sertifikatini>ni topshirish shart emas.
  - ※ <Emlash taqiqlangan shaxslar> tashxis qo'ygan(emlagan) tibbiyot muasasasidan <Emlashni taqiqlovchi sabablar>ni elektron ro'yxatdan o'tkazishini talab qilishi kerak. Lekin, tibbiyot muasasasi tomonidan <Emlashni taqiqlovchi sabablar>ni elektron ro'yxatdan o'tkazishning iloji bo'lmagan holatdagina <Emlashni taqiqlovchi sabablar> ko'rsatilgan tibbiy ma'lumotnoma olinib maktabga qabul qilingandan keyin topshiriladi.

### ▶ Emlash taqiqlangan shaxslar

- Vaktsina tarkibiga nisbatan yoki oldingi emlashdan keyin kuchli allergik reaksiya (anafilaksiya) yuz bergan holat
- Ko'k'yo'talga qarshi vaktsina yuborilgandan so'ng 7 kun ichida sababi aniqlanmaydigan ensefalopatiya yuz bergan holat
- Immunitet tanqisligi bor shaxslar yoki immunosupressiv dori vositasini qabul qiluvchilar
- ※ Yuqori isitma, immunoglobulin yuborish kabi vaqtinchalik sabablar yoki tuxum allergiyasi, atopiya kabilar taqiqlovchi sabablarga kirmaydi.



# 어린이가 건강한국 (우즈베키스탄어) Bolalari sog'lom Koreya



질병관리청  
TKasalliklarni nazorat  
qilish boshqarmasi



대한의사협회  
Korea Association  
of Pediatricians

에방접종전문위원회  
Emlash bo'yicha maxsus qo'mita

## 표준예방접종일정표(2022) Emlash uchun standart taqvim(2022)

대상감염병 Tegishli yuqumli kasalliklar	백신종류 및 방법 Vaksina turi va usuli	회수 Soni	출생~1개월이나 1oylikkacha	1개월 1oylik	2개월 2oylik	4개월 4oylik	6개월 6oylik	12개월 12oylik	15개월 15oylik	18개월 18oylik	19~23개월 19-23 oylik	24~35개월 24-35 oylik	만 4세 4yoshdan kichik	만 6세 6yoshdan kichik	만 11세 11yoshdan kichik	만 12세 12yoshdan kichik
결핵 SI	BCG(피내용) (TeniCHKarsidan)	1	BCG 1회 BCG 1marta													
B형간염 Gepatit B	HepB	3	HepB 1차 HepB 1-bosqich	HepB 2차 HepB 2-bosqich			HepB 3차 HepB 3-bosqich									
디프테리아 Difteriya	DTaP	5	DTaP 1차 DTaP 1-bosqich	DTaP 2차 DTaP 2-bosqich	DTaP 3차 DTaP 3-bosqich	DTaP 4차 DTaP 4-bosqich	DTaP 5차 DTaP 5-bosqich						DTaP 5차 DTaP 5-bosqich			
파상풍 Qoqshol	Tdap/Td	1														Tdap/Td 6차 Tdap/Td 6-bosqich
백일해 Kok yotal		4														
폴리오 Poliomelit	IPV	4			IPV 1차 1-bosqich	IPV 2차 2-bosqich	IPV 3차 3-bosqich									
b형헤모필루스인플루엔자 Gemofil grippning B turi	Hib	4		Hib 1-bosqich	Hib 2차 2-bosqich	Hib 3차 3-bosqich	Hib 4차 4-bosqich									
페렴구균 Pnevmoniya	PCV	4		PCV 1-bosqich	PCV 2차 2-bosqich	PCV 3-bosqich	PCV 4차 4-bosqich									
홍역 Ozamiq	PPSV	-														
유행성이하진염 Epidemik parotit	MMR	2														고위험군에 한하여 접종 Faqat yuqori xavfga ega to'liqlar uchun emlash amalga oshiriladi.
풍진 Ozilcha	MMR 1차	1														MMR 2차 MMR 2-bosqich
수두 Suvchechak	VAR	1														VAR 1회 VAR 1-bosqich
A형간염 Yapon ensefaliti	HepA	2														HepA 1~2차 HepA 1~2-bosqich
일본뇌염 Yapon ensefaliti	IJEV	5														IJEV 3차 IJEV 3-bosqich
사람유두종바이러스 감염증 Papillomavirus yuqumli kasalligi	LJEV	2														LJEV 1차 LJEV 1-bosqich
인플루엔자 Gripp	HPV	2														HPV 1~2차 HPV 1~2-bosqich
	IIV	-														IIV 매년 접종 IIV har yil emlanadi
로타바이러스 감염증 Rotavirus yuqumli kasalligi	RV1	2			RV 1차 RV 1-bosqich	RV 2차 RV 2-bosqich	RV 3차 RV 3-bosqich									
	RV5	3			RV 1차 RV 1-bosqich	RV 2차 RV 2-bosqich	RV 3차 RV 3-bosqich									

- **국가예방접종** : 국가에서 권장하는 필수예방접종(국가)는 「감염병의 예방 및 관리에 관한 법률」을 통해 예방접종 대상 감염병과 예방접종 실시기준 및 방법을 정하고, 이를 근거로 재원을 마련하여 지원하고 있음) Davlat tomonidan qilinadigan emlash: Davlat tomonidan majburiy emlash asosida (davlat tomonidan yuqumli kasalliklarning oldini olish va uni nazorat qilishga oid qonun yuqumli kasalliklarga qarshi emlashni amalga oshirish standartlari va usullari belgilanib, bu asosida mabalar tayyorlanadi va emlash amalga oshiriladi)
- **기타예방접종** : 예방접종 대상 감염병 및 지정감염병 이외 감염병으로 민간 의료기관에서 접종 가능한 유료 예방접종 Boshqa emlash turlari: Qarshi emlanadigan yuqumli kasalliklar va boshqa belgilangan yuqumli kasalliklarga qarshi jamoat tibbiy muassasalarida pullik xizmat tibbiy muassasalarida emlash turlari
- DTaP, IPV, Hib 백신은 예방접종일정에 따라 DTaP-IPV 또는 DTaP-IPV/Hib 혼합백신으로 접종가능 DTap, IPV, Hib emlash turi taqvimga ko'ra DTap-IPV yoki DTap-IPV/Hib qo'shma emlash sifatida amalga oshirilishi mumkin.

국가 예방접종  
Davlat tomonidan qilinadigan emlash

기타 예방접종  
Boshqa emlash turlari